

OLIMPIYA SHAHARCHASI

MAMLAKATIMIZDA SPORTNI YANADA RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-avgust kuni Toshkent shahrida qurib bitkazilgan Olimpiya shaharchasi, Yuqori Chirchiq tumanidagi Milliy futbol markazi faoliyati hamda yangi turizm infratuzilmasi obyektlari bilan tanishdi.



Mamlakatimizda keyingi yillarda barcha sohalarida keng ko'lamli izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasini yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi, tadbirkorlik subyektlari soni karrasiga ortayotgani, sanoatdagi yuqorilash, kambag'allik darajasining pasayishi kabi muhim yo'nalishlarda ko'rmoqdamiz.

Mustaqillik xalqimizga ana shunday erkinlik va ro'shnolik olib kelganini bugun ko'p yodga olmoqdamiz. Mamlakatimizning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayrami shukhi keziy yuribdi. Bayram oldidan turli ijtimoiy soha obyektlari va boshqa inshootlar qurib bitkazilmoqda. Bu

xalqimizga xos qadriyat – to'yga to'yona.

Poytaxtimizdagi Olimpiya shaharchasida ham ana shunday bayramona ruh hukmron. Davlatimiz rahbari ushbu majmuaga tashrif buyurdi.

Uning qurilishiga 2022-yil 9-noyabrda tamal toshi qo'yilgan edi. O'shanda davlatimiz rahbari Olimpiya shaharchasi

xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o'zbek sportining olamshumul yutuqlari ramziga aylanishi, me'moriy jihatdan mukammal, energiya tejamkor va eng ilg'or innovatsion yechimlarni mujassam qilgan zamonaviy majmua bo'lishini ta'kidlagandi.

Shunday ham bo'ldi – qisqa vaqt ichida 100 gektardan ziyod maydonda muhtasham majmua qad rostladi. Qariyb 290 million dollarlik ushbu noyob loyiha “CAMC Engineering” kompaniyasi tomonidan xalqaro talabarga muvofiq amalga oshirildi.

Shaharchada 5 ta asosiy sport majmuasi joylashgan.

Xususan, Velodrom murakkab muhandislik yechimlari asosida o'ziga xos dizaynda qurilgan. Uning yog'och qoplamasi sifati, trayektoriyasi va burilish burchaklari Xalqaro Olimpiya qo'mitasi talablariga javob beradi. Jumladan, yo'lak eng mustahkam daraxtlardan yasalgan, qavatma-qavat yotqizilgan. Bu sifat muntazam saqlanishi uchun velodromda yil davomida bir xil harorat ta'minlanadi. Hatto velosportchilarga havo qarshiligidacha inobatga olingan.

Trekka yorug'lik bir xil va teng darajada tushadi. Bu sportchilarga qulaylik bo'lishi bilan birga, tomosha va televizion translyatsiya me'yorlariga ham mos. O'rindiqlar 2 ming 200 kishiga mo'ljallangan. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining yangi talabi bo'yicha tomosha joylariga himoya to'sig'i o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

“O'ZBEKISTON, OZARBAYJON VA YEVROPA: UMUMIY TARAQQIYOT YO'LIDA HAMKORLIK” MAVZUSIDA O'TAYOTGAN YUQORI DARAJADAGI UCHRASHUV ISHTIROKCHILARIGA

Nizomiy Ganjaviy nomidagi xalqaro markazning hurmatli hamraislari!

Xonimlar va janoblari!

Siz, azizlarni qadimiy va go'zal O'zbekiston zaminida samimiy qutlashdan g'oyat mamnunman.

Biz o'z mamlakatlarining ravnaqiga, xalqaro hamkorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan atoqli siyosatchilar va davlat arboblari, xalqaro tashkilotlar rahbarlaridan iborat nufuzli tarkibni Toshkentda, bir davrada to'plash borasidagi tashabbusi uchun Nizomiy Ganjaviy nomidagi xalqaro markazga chuqur minnatdorlik bildiramiz.

Ushbu markaz, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy “shoirilarning sultoni”, deb ta'riflagan buyuk ozarbayjon mutafakkiri Nizomiy Ganjaviyning betakror ijodiy merosini asrab-avaylash va keng targ'ib etishda muhim o'rin tutib kelayotganini alohida qayd etmoqchiman.

Ta'kidlash kerakki, **Nizomiy Ganjaviyning teran falsafasi, odam va olam o'rtasidagi uyg'unlik hamda adolat haqidagi o'lmas g'oyalari doimo dolzarb bo'lib, bugungi murakkab sharoitda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda.**

Nizomiy Ganjaviy nomidagi markazning xalqaro kun tartibidagi masalalarni o'rganishdagi faol ishtiroki alohida e'tiborga loyiqdir. Uning shafeligida har yili o'tkazib kelinayotgan Global Boku forumi xalqaro va mintaqaviy taraqqiyotning eng dolzarb muammolarini hal etish uchun yangi g'oyalar ilgari suriladigan, dunyo miqyosida tan olingan nufuzli muloqot maydonlaridan biriga aylanadi.

Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari, ushbu ikki yirik mintaqaning Yevropa bilan hamkorlik istiqbollari bugungi anjumaning bosh mavzusi etib belgilangani g'oyat muhim, deb hisoblaymiz.

Biz buni o'zaro hamjihatlik va hamkorlik jarayonlari jadallashib borayotgan Markaziy Osiyoni jahonga yanada kengroq tanishtirish, mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston va Ozarbayjonning salohiyat hamda imkoniyatlaridan to'liq foydalanish yuzasidan fikr almashish uchun noyob imkoniyat sifatida qayd qilamiz.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda Ozarbayjon bilan o'zaro ishonch va bir-birini qo'llab-quvvatlash ruhidagi munosabatlarni faol rivojlanmoqda, Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolandi, Davlatlararo oliy kengash faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, **Ozarbayjon Markaziy Osiyo va Yevropani bog'lashda strategik ko'priq vazifasini bajarib kelayotganini ham alohida qayd etishni istar edim.**

Bugungi forumda ko'plab vakillari ishtirok etayotgan Yevropa bilan munosabatlarni o'zining mutlaqo yangi rivojlanish

davrini boshidan kechirayotganini qayd etmoqchiman.

Yaqinda biz yurtimizda ilk bor “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammitini o'tkazdik. Unda mintaqamiz va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasida strategik sheriklik o'rnatish to'g'risida tarixiy qaror qabul qilindi. Yaqin oylarda Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolaymiz.

Biz Yevropa Ittifoqi va boshqa sheriklarimiz bilan birgalikda samarali transport-logistika va energetika yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni davom ettiramiz. Ishonamizki, ushbu chora-tadbirlar mintaqamizning G'arb va Sharq o'rtasidagi xab sifatidagi rolini qayta tiklash imkonini beradi.

Biz Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevning yangi umummintaqaviy jarayonlarni rivojlantirishda ishtirok etishga tayyor ekanini yuqori baholaymiz hamda uning Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo hamkorligini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak qadrlaymiz.

Fursatdan foydalanib, do'st **Ozarbayjon xalqini ulkan tarixiy yutuq – yaqinda Vashingtonda AQSH vustachiligidagi Armaniston bilan uch tomonlama Qo'shma deklaratsiya imzolangani bilan yana bir bor chin dildan qutlaymiz.**

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Bugungi kunda O'zbekiston jadal islohotlarni qat'iy davom ettirmoqda va biz bu yo'lda ulkan natijalarga erishdik. “O'zbekiston – jahonga ochiq va o'zi uchun dunyoni kashf etayotgan mamlakat” degan tamoyil hayotimizdan mustahkam o'rin egallamoqda.

Biz xorijiy hamkorlar va xalqaro tashkilotlar bilan uzoq muddatli aloqalarni izchil mustahkamlamoqdamiz, hamkorlik uqlarini kengaytirmoqdamiz, yangi ilg'or g'oyalar uchun har doim ochiqmiz. Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lgan Yangi O'zbekistonda barpo etish siyosatini izchil davom ettiramiz.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi hozirgi murakkab davrda xalqaro hamjamiyatga bebaho boylik – barqarorlik, ishonch va taraqqiyotni taklif etmoqda.

Bugungi yangi sharoitda oldimizda hamkorlik bo'yicha keng uqlar ochilmoqda, o'zaro manfaatli va ikki tomonga ham foyda keltiradigan masalalar yuzasidan birgalikda ishlash uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda, deb hisoblayman. Bu borada sizlarning qo'llab-quvvatlashingiz va kelgusidagi hamkorligingizga umid qilamiz.

Bugungi nufuzli uchrashuvning barcha ishtirokchilariga samarali muhokamalar va anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini yuksaltirishda salmoqli natijalarga erishayotgani, tashabbuskorligi, zamonaviy bilim va tajribasini namoyon etib, investitsiyalarni jalb qilish, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishni yanada kengaytirish, aholi bandligi va farovonligini ta'minlash yo'lida alohida jonbozlik ko'rsatayotgani, shuningdek, o'zining muhim ilmiy-amaliy ishanmalari va innovatsion loyihalari bilan biznes sohasi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni bilan

Abdulloyev Kamol Talatovich – Samarqand shahridagi “Sam Antep Gilam” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Samarqand viloyati

Ismoilov Abdulxoshim Mamasobirovich – Andijon tumanidagi “Ravon taraqqiyot orzusi” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Andijon viloyati

Mamatdjanov Farxod Faxritdinovich – “Uztex” to'qimachilik korxonalari guruhi direktorlar kengashi raisi

Xashimov Zafar Kamilevich – Toshkent shahridagi “Anglesey Food” mas'uliyati cheklangan jamiyati kuzatuv kengashi raisi

“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator” faxriy unvoni bilan

Raxmanberdiyev Gappar – Toshkent kimyo-texnologiya institutining selluloza va yog'ochsozlik texnologiyasi kafedراسi professori

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O Y I S H I

“FAOL TADBIRKOR” KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLASH TO'G'RSIDA

Milliy iqtisodiyotimizda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, yurtimizda tadbirkorlik rivojini yangi bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirish borasidagi xizmatlari, sohaga ilg'or innovatsion, “yashil” va raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish, ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini oshirishga qo'shgan katta hisssasi, shuningdek, biznesda erishayotgan salmoqli natijalari hamda ijtimoiy hayotdagi munosib ishtiroki uchun quyidagilar “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlansin:

Atadjanov Ne'matjan Taxirovich – To'rko'l tumanidagi “Real montaj” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Yeshanov Zulfat Kadirbergenovich – Qonliko'l tumanidagi “Zamira Kazayakli” fermer xo'jaligi boshlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Jarilkasinov Ruslan Xojabayeovich – Shumanay tumanidagi “Promservis Shumanay” xususiy korxonasi rahbari, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Ismaylov Nurman Djanabayevich – Chimboy tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, hunarmand-o'tov yasovchi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Kaljanov Sarsenbay Kalbayevich – Nukus shahridagi “Jayhun Turon Super Servis” mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Xabibullayev Xojakbar Malik o'g'li – Nukus shahridagi “Nukus lak-bo'yoqlari” mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Atabekov Shaxzod G'ayratovich – Paxtabod tumanidagi “The Besttex” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Andijon viloyati

Axmedov Ravshanbek Alijonovich – Qo'rg'ontepa tumanidagi “Oqsuv” fermer xo'jaligi boshlig'i, Andijon viloyati

Ibaydullayev Ulug'bek Qurbonaliyevich – Andijon tumanidagi “Sity-Stray” mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

Mirzayev Farxodjon Alijanovich – Andijon tumanidagi “Texno-innovator” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Andijon viloyati

Moitov Xikmatillo Xabibullayevich – Jalaquduq tumanidagi “Ulug' qudrat sohibi” fermer xo'jaligi boshlig'i, Andijon viloyati

Siparova Svetlana Gennadyevna – Oltinko'l tumanidagi “Mark Formelle IT” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Andijon viloyati

Eshonxujayeva Noira Jo'rayevna – Xo'jaobod tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, Andijon viloyati

G'aybullayev Doniyor Ixtiyor o'g'li – Shofirkon tumanidagi xususiy o'quv markazi rahbari, Buxoro viloyati

Quvatov Elamon Choriyevich – Olot tumanidagi “Buxoro Gold Star Moto” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Buxoro viloyati

Ravshanov Abdulaziz Xamitovich – Kogon tumanidagi “Parravshantrans” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

ETILEN VA PROPILEN POLIMERLARIDAN YUQORI QO'SHILGAN QIYMATGA EGA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQUARUVCHI MAHALLIY KORXONALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarni sifati va arzon xomashyo bilan ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilishni qo'llab-quvvatlash maqsadida **qaror qilaman:**

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibda aniq texnik parametrlar asosida shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha respublika hududiga olib kiriladigan **polietilen granularlari uchun aksiz solig'ini 2025-yil 1-sentyabrdan 2028-yil 1-yanvargacha qadar nol stavkada qo'llash** to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

2. **2028-yil 1-yanvargacha qadar** ayrim **etilen polimerlarining** birlamchi shakllari (TIF TN kodi 3901 10 900 0, 3901 30, 3901 40) va **propilen polimerlarining** birlamchi shakllari (TIF TN kodi 3902 10 000 0) import qilishda **bojxona bojining nol stavkasi** qo'llansin.

3. Bojxona qo'mitasi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda mamlakatga sifatsiz kontrafakt **egiluvchan qadoqlar** (polietilen plyonkalar, polipropilen plyonkalar, noto'qima materiallar, polietilen qoplar, big-beglar va boshqalar) **importining oldini olish** (eks-offitsio prinsipi asosida) choralarini ko'rsin.

4. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

a) **bir oy muddatda** Soliq kodeksiga mazkur qarorning 1-bandidan kelib chiqadigan o'zgartirish kiritishni nazarda tutuvchi **qonun loyihasini**;

b) **2025-yil 1-oktyabrgacha qadar** polietilen granularlari ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar uchun aksiz solig'i solinishida **import bilan teng sharoitlar yaratish** bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritisin.

5. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **bir oy muddatda** mazkur qarorning ijrosini ta'minlash, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati **tadbirkorlik subyektlariga yetkazilishi** hamda **tushuntirilishini** ta'minlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari J. A. Xodjayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 18-avgust

OLIMPIYA SHAHARCHASI MAMLAKATIMIZDA SPORTNI YANADA RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILADI



Shuningdek, majmua koʻp funksiyali boʻlib, bu yerda stol tennisi, qilichbozlik boʻyicha musobaqa va mashgʻulotlar oʻtkazish ham mumkin. Bunday darajadagi velodrom Oʻzbekistonda birinchi.

Mutasaddilarga hududlarda sharoit yaratib, velosportni rivojlantirish boʻyicha dastur tayyorlash vazifasi qoʻyildi.

Prezidentimiz stol tennisi hammabop, arzon va qulay sport ekanini taʼkidlab, har bir maktab va mahallada uni ommalashtirish, anjomlarini ishlab chiqarish yuzasidan koʻrsatmalar berdi.

Shaharcha markazida 12 ming oʻrinli stadion joylashgan. Xalqaro turnirlar paytida bu yerda tantanali marosimlar tashkil etiladi. Asosiysi, yashil maydon va 9 qatorli yugurish yoʻlagida yengil atletikaning 48 ta yoʻnalishi boʻyicha musobaqalar oʻtkaziladi. Jumladan, jahon chempionati, Brilliant ligasi, para atletika bahslari, koʻzi ojizlar oʻrtasida IBSA oʻyinlarini tashkil etish mumkin. Boshqa paytlarda stadiondan mahalliy oʻquv-yigʻinlar, amaliy mashgʻulotlar orqali dual taʼlimda foydalaniladi.

Stadiondagi toʻrt qavatli binoda terma jamoalar mutaxassislari va sport federatsiyalari faoliyat yuritadi.

Yengil atletika va para sport turlari aholi salomatligini mustahkamlashda juda samarali. Olimpiya va Osiyo oʻyinlarida ular boʻyicha dastur ham keng. Lekin yurtimizda bu imkoniyatlar toʻla ishga solinmayotgani koʻrsatib oʻtiladi.

Shu bois yengil atletikaning barcha yoʻnalishlarini rivojlantirish boʻyicha topshiriq berildi. Unga koʻra, viloyatlardagi stadionlar rekonstruksiya qilinib, yengil atletika uchun sharoitlar yaxshilanadi, xorijdan murabbiylar olib kelinadi, sportchilar mahoratini oshirish maqsad qilib qoʻyiladi.

Ulkan suv sporti saroyi ham zamonaviy va qulay. Unda 25x50 metri suzish va 25x20 metri suvga sakrash hazzalari, mashgʻulotlar uchun basseyn va trenajyor zallari bor. Barcha sharoit va oʻlchamlar xalqaro olimpiya standarti talablariga javob beradi.

Yaʼqinda “World Aquatics” federatsiyasi delegatsiyasi majmuani koʻrikdan oʻtkazdi va buni tasdiqladi. Yaʼni bu yerda suzish, suvga sakrash, sinxron suzish, suv polosi boʻyicha qitʼa va jahon chempionatlari, Olimpiya dasturidagi nufuzli musobaqalarni tashkil etish imkoniyati bor. Ularni 2 mingdan ziyod muxlislar tomosha qilishi mumkin.

Davlatimiz rahbari suv sport turlarini

rivojlantirish, xalqaro turnirlarda natijalarni yaxshilash boʻyicha oʻz fikrlarini bildirdi.

Jamoaviy va yakkakurash sport turlari majmualari ham xalqaro talablar darajasida bunoyd etilgan. Ularning har biri uch qavatli, 2 ming oʻrinli. Jumladan, birinchisida voleybol, basketbol va gandbol boʻyicha mashgʻulot hamda xalqaro musobaqalarni oʻtkazish mumkin. Yakkakurashlar majmuasi dzyudo, boks, taekvondo kabi sport turlarini rivojlantirishga asos boʻladi.

Prezidentimiz shu yerda sportchilar bilan suhbatlashdi.

– Xalqaro musobaqalarda bayrogʻimizni baland koʻtarib, mamlakatimiz rivojini namoyon etyapsizlar. Sizning har bir yutugʻingiz xalqimiz uchun katta gʻurur, yoshlarimizga kuch, dalda. Bu harakatlarni davom ettirib, bolalarni ortingizdan ergashtirib, sportimizni yanada yuksaltirishingizni tilaymiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Olimpiya shaharchasida futbol, voleybol, tennis, chim ustida xokkey, yengil atletika kabilar boʻyicha 15 ta ochiq maydon ham barpo etildi.

Bundan tashqari, 400 oʻrinli paralimpiya yotoqxonasi, sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi qurilishi yakuniy bosqichda.

Shaharchadagi barcha inshootlar energiya tejamkor boʻladi. Avtoturargohlar ustida quyosh panellari oʻrnatiladi.

Olimpiya shaharchasi – mamlakatimiz sportining ilmiy, amaliy, oʻquv-mashgʻulot markazi.

Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 18-noyabrda Olimpiya shaharchasi qurilishi bilan tanishuv chogʻida aytgan edi.

– Bu yerda mashgʻulotlar bilan birga sport taʼlimi, ilmi, tibbiyoti mujassam boʻlishi zarur. Yaʼni bu joy mamlakatimiz sportining ilmiy, amaliy, oʻquv-mashgʻulot markazi boʻladi, – degan edi davlatimiz rahbari.

Shunga muvofiq, shaharchada Sport vazirligi, Antidoping agentligi, Davlat sport akademiyasi, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti, Sport turlarini rivojlantirish markazi ham joylashtirilgan.

Bu galgi tashrif chogʻida Olimpiya shaharchasi infratuzilmasidan samarali foydalanish rejalari, sport tashkilotlarining joylashuvi va faoliyati boʻyicha axborot berildi.

Avvalo, shaharchada xalqaro darajadagi musobaqalar oʻtkaziladi. Inshootlar undan keyin ham boʻshab qolmaydi. Mamlakatimiz terma jamoalarining oʻquv mashgʻulotlari tashkil etiladi. Federatsiyalar sport maktablari bilan bogʻlanadi.

Hududda va majmualarda yurtdoshlarimiz ham sport bilan shugʻullanishi mumkin boʻladi.

Prezidentimiz shu yerda soha mutasaddilari va sport federatsiyalari rahbarlari bilan muloqotda boʻldi.

– Avvalo, sportchilarimiz va federatsiyalarni mana shunday maskan bilan tabriklayman. Bu bilan yosh avlod salomatligiga, boʻljak yutuqlarga katta poydevor quridik. Lekin bu ishning eng osoni. Qiyni – sport turlarini ommalashtirish, professional sportchilarni tayyorlash. Biz sportni ham salomatlik, ham natijadorlik nuqtayi nazaridan rivojlantirib boramiz. Xudo xohlasa, bunday Olimpiya shaharchalari viloyatlarda ham quriladi. Asosiy maqsad – yoshlarimizning sogʻlom va barkamoligi, – dedi davlat rahbari.

Maʼlumki, 2024-yilda Parijda oʻtgan Olimpiya va Paralimpiya oʻyinlarida yurtimiz sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etib, umumjamoa hisobida har ikki yoʻnalishda 13-oʻrinni egallagan edi. Endi olimpiya harakatini yanada rivojlantirish, kelgusidagi musobaqalarda natijalarni oshirish maqsad qilingan.

Mamlakatimiz Prezidentining shu yil 8-iyuldagi qarori bilan Oʻzbekiston sportchilarini 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpiya oʻyinlariga tayyorlash dasturi qabul qilindi.

Bu yoʻnalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qoʻmitasining 14 ta hududiy boʻlimi tashkil etildi. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Olimpiya harakatini rivojlantirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus vakili etib belgilandi. Har bir hududga Sport vazirligi va Milliy olimpiya qoʻmitasidan masʼullar birlashtirildi.

Iqtidorli sportchilarni eng quyi boʻgʻindan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli “Yangi Oʻzbekiston Olimpiya choʻqqilari” musobaqasi yoʻlga qoʻyildi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida “Prezident Olimpiadasi” sifatida oʻtkaziladi. Gʻolib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorlanadi.

Respublika olimpiya va paralimpiya markazining faoliyati milliy terma jamoalar zaxirasini yaratishga qaratiladi. Oʻquv-mashgʻulotlar oʻtkazib borish uchun Olimpiya shaharchasi inshootlari markazga begʻaraz asosda birlashtiriladi.

Shuningdek, atletlar zaxirasini kengaytirish maqsadida xususiy sport klublari faoliyati takomillashtirilib, rasmiy musobaqalardagi ishtiroki taʼminlanadi. Yuqori natija koʻrsatgan sportchilar milliy terma jamoalarga qabul qilinishi mumkin boʻladi.

Prezidentimiz sport turlarini ommalashtirish masalasiga alohida urgʻu berdi.

– Mardlik, kurashchanlik xalqimizning qonida bor. Odamlarimiz sportni yaxshi koʻradi. Buni qoʻllab-quvvatlab, mahallalarda sportni yanada ommalashtirish kerak. Buning uchun joylarda sharoit bor. Yana qurayapmiz. Natija ham ommaviylikdan kelib chiqadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga sohani raqamlashtirish, sport federatsiyalari faoliyatini kuchaytirish, natijador sport turlarini koʻpaytirish boʻyicha koʻrsatmalar berildi.

Shundan soʻng Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilgan Milliy futbol markazini borib koʻrdi.

Davlatimiz rahbari ikki yil oldin bu yerga tashrif buyurib, mavjud stadiongga tutash hududda zamonaviy majmua bunoyd etish zarurligini aytgan edi. Koʻp oʻtmay, 2023-yil 3-noyabrda “Futbol-taʼlim mutassasalari tarmogʻini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident qarori imzolandi.

Mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilgan mazkur markaz bunda juda muhim boʻgʻin. Bu yerda bir vaqtning oʻzida 6 ta terma jamoamizning oʻquv-mashgʻulot yigʻinlarini oʻtkazish imkoniyati bor. Buning uchun stadionlar, oʻquv binolari, sport zallari, mehmonxona barpo etilgan. Plyaj futboli maydoni, futzal maneji, basseyn va reabilitatsiya boʻlimi qoʻshimcha qulayliklar yaratgan.

Majmuada professional futbolchi va mutaxassislarni tayyorlash uchun toʻrtta tuzilma tashkil etildi. Bular – Futbol mutaxassislarni tayyorlash va ilmiy-tadqiqot markazi, Futbol terma jamoalari tayyorgarlik markazi, Respublika

futbol akademiyasi, Sport tibbiyoti va reabilitatsiya markazidir.

Prezidentimiz ularda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Futbol tibbiyoti va reabilitatsiyasi boʻlimiga xorijiy uskunalar olib kelingan, eng ilgʻor uslublar oʻzlashtirilgan. Bu futbolchilarga qisqa vaqt ichida jismonan tiklanish imkoniyatini beradi.

Futbol akademiyasida yosh isteʼdodlar saralanib, tarbiyalanadi. Buni xalqaro darajada tashkil etish uchun markazga Argentina, Vengriya va Xorvatiya kabi davlatlardan mutaxassislar jalb qilingan. Ular malakali murabbiy, hakam, tahlich, seleksioner va futbol menejerlarini tayyorlashda ishtirok etmoqda. Majmuada “VAR markazi” ham tashkil qilingan.

Davlatimiz rahbari shu yerda sport faxriylari va yosh futbolchilar bilan suhbatlashdi. Oʻzbekistonda futbol eng ommaviy sport ekani, uni rivojlantirish izchil davom ettirilishi taʼkidlandi.

Keyingi yillarda futbol tizimi tubdan yaxshilandi. Bolalar futboli, toʻgaraklardan tortib akademiyalar, jamoalar, chempionatgacha eʼtibor kuchaydi. Natijalar birin-ketin boʻy koʻrsatmoqda. Ularning eng muhimi, Vatanimiz tarixida birinchi marta milliy terma jamoamiz jahon chempionatiga chiqqani boʻldi.

Yana bir shonli yutuq aprelda Saudiya Arabistonida boʻlib oʻtgan Osiyo kubogida qoʻlga kiritildi. 17 yoshgacha boʻlgan oʻsmirlar terma jamoamiz unda birinchi oʻrinni egallab, jahon chempionatiga yoʻllanma olgan edi.

Prezidentimiz ushbu qahramon futbolchilarimiz bilan uchrashib, ularga mehr-eʼtiborini izhor qildi.

– Biz hamma sohada dunyoda munosib oʻrin egallashga intilyapmiz. Sportchilarimiz buni tezroq yetkaza oladi. Sizlar irodali gʻalabangiz bilan xalqimiz mehnat qilsa, harakat qilsa, hamma narsaga qodir ekanini yana bir bor isbotladingiz. Butun dunyo sizning timsolingizda azmu shijoatli, gʻururi baland, hech qachon intilishdan qaytmaydigan yangi Oʻzbekiston avlodini koʻrdi. Endi futbolni hozirigidan ham ikki-uch karra koʻproq qoʻllab-quvvatlaymiz. Sizdek yoshlar xalqimizning ishonchi, Prezidentning quvonchisizlar, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Sportchilar bu sharoitlar uchun davlat rahbariga minnatdorlik bildirib, xalqimiz ishonchini oqlashga vaʼda berishdi.

Mamlakatimizning turizm salohiyati yildan-yilga oshib boryapti. Barcha

hududlarda sayyohlar koʻpayib, zamonaviy mehmonxonalar va turizm maskanlari barpo etilmoqda.

Toshkent shahridagi “Yangi Oʻzbekiston” bogʻiga yondosh qurilgan zamonaviy mehmonxonalar majmuasi shu ishlarning mantiqiy davomidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev joylardagi bunyodkorlik bilan tanishuvi chogʻida mazkur inshootlarni ham koʻzdan kechirdi.

Bir paytlar qarovsiz yotgan manzillar bugun obod maskanga aylangan. 8 gektardan ziyod maydonda 12 ta zamonaviy mehmonxona, 375 oʻrinli “Yangi Toshkent” konferensiya zali, 310 oʻrinli restoran, sogʻlomlashtirish markazi hamda ochiq sport maydoni barpo etilgan.

Mehmonxonalarga Qoraqalpogʻiston va viloyatlar nomi berilgan. Ular 3 yulduzli boʻlib, 5 qavatdan iborat, 62 ta xona va 124 oʻrinda ega. Majmua yagona konsepsiya asosida faoliyat yuritadi va uning boshqaruvi xalqaro tajribaga ega “Leo Hospitality Solutions”, “Radisson Individuals”, “Trademark Collection by Wyndham” kabi nufuzli kompaniyalarga topshiriladi.

Xususiy banklar shu kabi majmualar boshqaruviga sherik boʻlib kirish taklifini bildirdi. Davlatimiz rahbari xizmat sohalari kengayishi, joylarda zamonaviy maskanlar koʻpayishi aholi farovonligiga hissa qoʻshishini taʼkidladi.

Mehmonxonalar restoran, anjumanlar zali va dam olish maskanlari bilan uygʻun qurilgan xizmat qamrovini oshiradi. Bu yerda yuqori darajadagi tadbirlar hamda yirik xalqaro anjumanlar oʻtkazilishi ham mumkin.

Majmuada 540 ta yangi ish oʻrni yaratilib, yiliga oʻrtacha 55 ming turistga xizmat koʻrsatilishi koʻzda tutilgan. Bu yer mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun yana bir lokatsiya, Toshkent vohasida turizm rivoji uchun qoʻshimcha turtki boʻladi. Majmua qurilishi oʻrtidan yon-atrofdagi mahallalarning infratuzilmasi ham yaxshilanib, aholi farovonligi taʼminlandi.

Davlatimiz rahbari majmuada xizmat turlarini koʻpaytirish va sifatini oshirish, mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etish masalalariga eʼtibor qaratdi. Bunday koʻp tarmoqli xizmatlarni boshqa hududlarda ham keng yoʻlga qoʻyish muhimligi taʼkidlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
OʻZA muxbirlari.

PARLAMENTLARARO MULOQOT KENGAYADI

18-avgust kuni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Qozogʻiston Respublikasi Parlamenti Senati Raisi Maulen Ashimbayevning taklifiga binoan Ostona shahriga keldi.

Hamkorlik

Tashrif doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va

Qozogʻiston Respublikasi Parlamenti Senati oʻrtasida 2025-2026-yillarga

moʻljallangan hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi”ni imzolash rejalashtirilgan. Hujjat parlamentlararo muloqotni mustahkamlash va ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar boʻyicha hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Tashrif dasturiga muvofiq Oliy Majlis Senati Raisi

Tanzila Norboyevaning Qozogʻiston Respublikasi Parlamenti Senati Raisi Maulen Ashimbayev, Qozogʻiston Respublikasi Parlamenti Majlisi Raisi Yerlan Koshanov, shuningdek, Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xotin-qizlar va oilaviy-demografik siyosat ishlari boʻyicha

milliy komissiya aʼzolari bilan uchrashuvi nazarda tutilgan.

Delegatsiya aʼzolari Oʻzbekiston va Qozogʻiston ilmiy-ijodiy ziyolilarining birinchi forumida ham ishtirok etadi, shuningdek, “Ostona” xalqaro moliya markazi faoliyati bilan tanishadi.

“Xalq soʻzi”.

“Financial Times”:

OʻZBEKISTON OʻZGARISHLARNI BOSHDA KECHIRAYOTGAN DAVLAT SIFATIDA UZOQ YOʻLNI BOSIB OʻTDI

Britaniyaning nufuzli “Financial Times” gazetasida “Oʻzbekiston oʻzini yuqori oʻsish salohiyatiga ega bozor sifatida koʻrsatmoqda” sarlavhali maqola eʼlon qilindi.

Dunyo nigohi

“Oʻzbekiston hali koʻp investorlar xaritasida boʻlmagan boʻlsa-da, 1,5 milliard dollarlik suveren yevrobondlar chiqarilishi, davlat aktivlarini 1,7 milliard dollarga xususiyashtirish rejalari va transchegaraviy fintex bitimi bu oʻzgarishlarga umid uygʻotmoqda, – deb yozilgan maqola muqaddimasida. – Mintaqadagi eng koʻp aholiga ega ushbu Markaziy Osiyo davlatining investitsiya faylida bir nechta yirik kelishuvlar bor”.

Mualif taʼkidga koʻra, chegara bozorlar rivojlanayotgan, bozorlar tugaydigan joyda boshlanadi. Bu esa yuqori oʻsish salohiyatini, shu bilan birga, jiddiy xavflarni ham yuzaga keltiradi. Bunday mamlakatlarda investitsiyalar hajmi hali ham kichik boʻlib, xorij kapitali uchun sanoatni ochish koʻpincha hali ham davom etmoqda. Biroq bunday bozorlar yaqinda kuchli koʻrsatkichlarni koʻrsatdi.

“2016 yilgacha xalqaro miqyosda yakkalanib qolgan Oʻzbekiston bugungi voqeikdan yaxshi xabardor. Prezident Shavkat Mirziyoyev vaziyatni bosqichma-bosqich oʻzgartirmoqda. U islohotlar oʻtkazmoqda, valyuta cheklovlarini olib tashlamogʻda”, deya urgʻulangan materialda.

Natijada Oʻzbekistondagi vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar koʻpaymoqda, startaplar paydo boʻlmoqda. Oʻtgan oy “Click” toʻlov ilovasi sarmoyadorlari oʻz aksiyalarining bir qismini

qozogʻistonliklarga tegishli mahalliy bank aksiyalariga almashtirishga rozi boʻldi. Agar bitim tartibga soluvchi organlar tomonidan tasdiqlansa, “Click” ilovasi samarali ravishda jismoniy bank xizmatiga ega boʻladi.

Taʼkidlanganidek, xususiyashtirish rejalari ulkan. Uzoq muddatli maqsadda iqtisodiyotdagi xususiy sektor ulushini hozirgi taxminan 50 foizdan 85 foizga oshirish, 17 ta davlat monopoliyasi va qator davlat korxonalarini tugatish nazarda tutilgan.

“Biroq bular asta-sekin sodir boʻladi. 1,7 milliard dollarlik aktivlar xalqaro bozorlarga chiqariladi. Oʻzbekiston Milliy investitsiya jamʼarmasi AQSHning “Franklin Templeton” kompaniyasi tomonidan boshqariladi. U Ruminiyaning “Fondul Proprieteate” kompaniyasi namunasi boʻlib, soʻnggi besh yil ichida qiymati ikki baravar oshdi”, deb qayd etilgan manbada.

Shuningdek, Londonda obligatsiyalarini chiqargan dunyodagi toʻrtinchi yirik oltin ishlab chiqaruvchi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” va Olmaliq mis zavodining ilk muvaffaqiyatlari yangi IPOga yoʻl ochmoqda. AQSH Davlat departamenti maʼlumotlariga koʻra amerikalik investorlar Oʻzbekistonga tobora koʻproq qiziqish bildirmoqda.

Maqola “Oʻzbekiston oʻzgarishlarni boshdan kechirayotgan davlat sifatida uzoq yoʻlni bosib oʻtdi”, degan soʻzlar bilan yakunlangan.

“Dunyo” AA.
London

Toshkent viloyatida ikki mingga yaqin ish oʻrinlari yaratiladigan agrosanoat loyihasi amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

HUQUQIY NORMALARDA
INSON MANFAATLARI USTUVOR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida to'qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va xaziralarni ishga solish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalarning ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Fraksiya rahbari Aktram Haitovning aytishicha, har qanday tarmoq, avvalo, muammolarning tub mohiyatini aniqlash, tizimli hal etish, tomonlarga teng, adolatli imkoniyatlar yaratish orqali rivojlanadi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sohadagi muammolarni hal qilishga qaratilgan barcha tashabbuslar O'zLiDep partiyasi g'oyalariiga uyg'un va hamohangdir. Zero, bu mamlakatimizni "to'qimachilik xabi"ga aylantirishda muhim qadam bo'ladi.

Yig'ilishda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamalar markazida bo'ldi.

U bilan atom energiyasidan foydalanishni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish nazarda tutilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi sohada yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ sifatida belgilanyapti.

Shuningdek, davlat organlari, vazirlik va idoralarning nomlari hamda huquqiy atamalar amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirilmoqda. Qolaversa, yuridik-texnika qoidalaridan kelib chiqib, normalarni aniqlashtirish va ular o'rnatidagi uyg'unlikni ta'minlash maqsadida tegishli o'zgartirishlar kiritilyapti.

Muhokama jarayonida fraksiya a'zosi Ruslan Sobirov qonun loyihasining ahamiyatiga alohida to'xtalib, uni takomillashtirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mazkur hujjat atom

energiyasidan foydalanish sohasida huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish, davlat boshqaruvi va nazoratining samarali yo'lga qo'yilishini ta'minlashga xizmat qilishi e'tiborga olinib, qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda davlat organlari va tashkilotlarining mas'uliyatini yanada kuchaytirish hamda sohada ixcham boshqaruv tizimini shakllantirishga doir keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Loyihada amaldagi bir qator qonun hujjatlarini o'zaro muvofiqlashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tizimini rivojlantirish hamda tovar belgilari va patent bojlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasining zaruratiga to'xtalib, uning ayrim normalari yuzasidan aniqlashtiruvchi savollarni o'rtaga tashladi. Misol uchun, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida faoliyati yo'lga qo'yilgan Sall-markaz va "Ishonch telefoni"dan bugungi kunda keng foydalanib kelinayotganiga urg'u berilib, qonun loyihasida bu tushunchalar qay darajada mustahkamlanayotgani yuzasidan izoh so'raldi.

Qonun tashabbuskorlari berilgan savollarga a'zolari javob qaytardi.

Yig'ilishda qonun loyihasi murojaatlar bilan ishlash jarayonini tezkor va shaffof bo'lishi, intellektual mulk sohasida huquqiy muhofaza darajasining oshishi hamda biznes yuritish uchun qulay huquqiy muhit yaratish kabi maqsadlarni



nazarda tutgani bilan ahamiyatli ekanini ta'kidlab, fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplashga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi.

Loyiha bilan yetkazilgan zararning o'rnini kompensatsiyalash, hududiy kompensatsiya jamg'armasi hisobidan qoplab berilgan mablag'larni keyinchalik aybdor deb topilgan davlat organining mansabdor shaxsidan to'liq miqdorda regress tartibida undirib olish, hududiy kompensatsiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish tartibi belgilanmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirib o'tdi. Xususan, deputat Shuhrat Yoqubov loyihaning 2, 4 va 13-moddalari, Dilmurod Ismoilov esa 9 va 14-moddalari bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar berdi.

Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan savollar bo'yicha batafsil tushuntirish berib, mazkur hujjat fuqarolarning davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini davlat tomonidan qoplanishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga xizmat qilishini qayd etdi.

Yig'ilishda fraksiya a'zosi Zuhriddin Mavlonov ham qonun loyihasi yuzasidan o'z fikrlarini

bildirar ekan, uni ikkinchi ekanini ta'kidlab, fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bir qator qonun loyihalari, xususan, "Davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risida"gi qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Loyihaga ko'ra davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplash sohasidagi munosabatlarni amalga oshirishda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, jismoniy yoki yuridik shaxslar haqqoniy va to'liq axborot taqdim etishi shartlii belgilab qo'yilmoqda.

Fraksiya a'zosi Qizilgul Qosimovaning fikriga ko'ra davlat organi yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplanishi loyihada hech qanday istisnosiz, aniq belgilab qo'yilishi lozim.

Shuningdek, qayta ko'rib chiqilayotgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, tibbiyot va

farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun keng muhokama sabab bo'ldi.

Mas'ul qo'mita qonun bo'yicha kelishuv komissiyasini tuzish taklifini ilgari surib, fraksiya a'zolaridan qo'llab-quvvatlashni so'radi.

Kun tartibiga muvofiq ko'rib chiqilgan qonun loyihalarida hamda parlament nazoratiga oid masalalar qonun ustuvorligini mustahkamlash, fuqarolar huquq va erkinliklari himoyasi, sog'liqni saqlash va sport sohasini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilib, ma'qullash haqida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

U mamlakatimizda qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish va huquqiy mexanizmlarni zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan.

Qonun loyihasida "Ishonch telefoni" tushunchasiga izoh berilib, uni – jismoniy va yuridik shaxslardan ularning qonuniy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash masalalari bo'yicha arizalar, takliflar va shikoyatlarni qabul qilish uchun telefon aloqasining maxsus liniyasi sifatida nazarda tutish belgilanyapti.

Muhokama davomida fraksiya a'zosi Dildora Kamolova loyihaning ahamiyati, ayni chog'da zaruratiga e'tibor qaratib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar berdi. Qonun tashabbuskorlari esa ko'tarilgan savollar bo'yicha atroflicha tushuntirish berib o'tdi.

Deputat Botirali Shodiye qonun loyihasi yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bildirib, mazkur hujjat davlat organlari faoliyatida huquqiy aniqlik va barqarorlikni, murojaatlar bilan ishlash jarayoni tezkor va shaffof bo'lishini ta'minlashga qaratilganini alohida qayd etdi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

Biz suv resurslarini tejash maqsadida irrigatsiya tizimlarini betonlashtiryapmiz. Suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha sanoat bazasini yaratdik, sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalarni joriy etdik. Bunday chora-tadbirlar natijasida o'tgan yili 8 milliard metr kub suvni tejashga muvaffaq bo'ldik.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

KELAJAK SUVGA BO'LGAN
MUNOSABATIMIZGA
BOG'LIQ

Hayot uchun eng zarur resurs – suvga bo'lgan talab dunyo bo'yicha tobora ortib, uning qadri va qiymati o'sib boryapti. Olib borilayotgan tadqiqot va tahlillardan kelib chiqqan holda, ushbu holat sanoatlashuv, global iqlim o'zgarishi ta'sirida haroratning ko'tarilishi, muzliklarning erishi, yog'ingarchilik miqdorining kamayishi, qurg'oqchilik, aholi sonining ko'payishi, oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojning kuchayishi kabi turli omillar bilan izohlanmoqda.

Islohot

So'nggi yillarda Yevropa davlatlari yoz mavsumida kuchli qurg'oqchilikni boshdan kechiryapti. Misol uchun shu yilning avgust oyi boshlarida Ruminiya va Serbiyada yer osti suvlari sathi pasayib ketib, qurg'oqchilikdan ekinlar quriy boshlagan. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi ko'p mamlakatlar qatorida Markaziy Osiyo mintaqasida ham suv taqisligi yildan-yilga kuchliroq sezilyapti. Daryo va soylardagi suv miqdorlari kamayib bormoqda.

Joriy yilning 14-avgust kuni Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasining 90-yig'ilishida ishtirokchilarga O'zbekistonning Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 – 2028-yillarga mo'ljallangan dasturi haqida axborot berildi.

O'zbekistonda sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga 2020 – 2024-yillarda 60 trln. so'm byudjet mablag'lari hamda 622 mln. AQSH dollarilik xorijiy investitsiya yo'naltirildi. Natijada 2020-yilda suv tejovchi texnologiyalar qo'llangan maydonlar jami sug'oriladigan maydonlarga nisbatan 4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 50 foizdan oshdi.

Yana 1 mln. 400 ming gektar yerda suv tejovchi, shu jumladan, 293 ming gektarda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etiladi. Suv ta'minoti darajasi past bo'lgan sug'oriladigan maydonlar hajmini 424 ming gektardan 276 ming gektargacha kamaytirish ko'zda tutilgan.

Dasturda irrigatsiya tarmoqlarining 2 551 km. qismini rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun har yili Davlat byudjetidan kamida 1,3 trln. so'm ajratish va xalqaro moliya institutlari mablag'laridan 300 mln. dollar o'zlashtirish belgilangan.

Suv xo'jaligi vazirligi balansidagi nasos stansiyalarining eskirgan 562 ta nasos va 578 ta elektr dvigateli zamonaviy hamda energiya tejamkorlariga almashtiriladi. Buning hisobiga ularning yillik elektr energiyasi sarfi 6,8 mlrd. kVt/soatdan 6,2 mlrd. kVt/soatgacha kamaytiriladi. Kanallarni betonlashtirish va nasoslarni modernizatsiyalash ishlariga chet el investitsiyalarini jalb qilishga asosiy vazifa sifatida e'tibor qaratiladi.

Dasturda nafaqat soha oldidagi to'rt yillik muhim ko'rsatkichlar, shu bilan birga, bajariladigan tadbirlar, moliyalashtirish manbalari aniq belgilangan qo'shni davlatlarning suv xo'jaligi mutaxassislarida katta taassurot qoldirdi. O'zbekiston rahbari butun mintaqa xalqlari farovonligi uchun qayg'urayotganligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz shu yil aprel oyida Samarqand xalqaro iqlim forumidagi Natijada Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturni ishga tushirish tashabbusi bilan chiqqan edi.

Quvonarlisi, bu boradagi amaliy ishlar allaqachon boshlanib ketdi. Yaqindagi tojikistonlik bir guruh mutaxassislar uchun Toshkentdagi Suvchilar maktabida trening tashkil qilindi. Ularga O'zbekistonda suv tejovchi texnologiyalarini joriy etishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, "Suvkredit", "Agrosubsidiya", "Tomchi" dasturiy ta'minot va mobil ilovalari, subsidiyalar berish tartibi va Yagona elektron reestrda foydalanish haqida batafsil ma'lumot berildi. Bu esa mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 12-avgust kuni suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini



rivojlantirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishuv chog'ida ta'kidlaganidek, suv xo'jaligi sohasida keskin o'zgarish qilishning birdan-bir yo'li – raqamlashtirish. Bu orqali shaffoflik, aniqlik ta'minlanadi, korrupsiyaning oldi olinadi.

Shu bois "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasida ham ushbu yo'nalishdagi muhim vazifalar qamrab olindi. Mazkur hujjatlarda belgilangan ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda suv ombori va irrigatsiya tizimlarining suv o'lchash postlarida suv resurslarini kuzatib borish imkonini beruvchi "Aqli suv", meliorativ kuzatuv qudug'ida sizot suvlari ko'rsatkichlari va yerlarning minerallashtirish darajasini nazorat qiluvchi "DIVER", shuningdek, nasos stansiyalarida suv sarfini monitoring qilish qurilmalarini o'rnatish, yirik suv xo'jaligi obyektlarining boshqaruviini avtomatlashtirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Bu esa o'zining natijalarini bera boshladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, vazirlik huzurida Suv xo'jaligini raqamlashtirish markazi tashkil etildi. "Suv hisobi", "Nasos stansiyalari" kabi axborot tizimlari yaratildi. Bu boradagi ishlar ko'lami kelgusida ham tobora kengaytiriladi. Binobarin, yaqinda qabul qilingan to'rt yillik dasturda ham sohani raqamlashtirish bo'yicha yangi vazifalar belgilab berildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston tajribasidan kelib chiqqan holda, qo'shni davlatlar bilan birgalikda foydalaniladigan suv manbalariga raqamli suv o'lchash qurilmalarini o'rnatish, suvning hisobini onlayn va shaffof tarzda kuzatib borish tashabbusi ilgari surilmoqda.

Prezidentimizning bevosita rahbarligida va beqiyos ko'magi bilan ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida jamiyatimizda suvni tejash madaniyati shakllanyapti. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirish, pirovardida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Birgina 2024-yil iqtisod qilingan 8 mlrd. metr kub suv takroriy ekinlar yetishtirish, aholi tomoqalarini sug'orishga yo'naltirilgan buning yaqqol dalildir.

Shu ma'noda, Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 – 2028-yillarga mo'ljallangan dasturiga muvofiq, joriy yilda 10 mlrd. metr kub, 2026-yilda 12 mlrd. metr kub, 2027-yilda 13 mlrd. metr kub, 2028-yilda esa 14 mlrd. metr kub suvni iqtisod qilish vazifasi qo'yilgani alohida e'tiborga molik jihatdir.

Suv ulug' ne'mat, tabiiy joiz bo'lsa, u butun olam tirikligining manbaidir. Prezidentimizning qo'shnilar bilan munosabatlarni yaxshilash, xalqimizni suv bilan ta'minlash, dehqonlarimizga zarur shart-sharoitlar yaratib berish borasida olib borayotgan ulkan sa'y-harakatlari zamirida, avvalo, suv resurslarini samarali boshqarish va undan oqilona foydalanish orqali butun mintaqada suv muammosini hal etish maqsad-muddaosi mujassam bo'lib, bu esa o'zining amaliy natijalarini beryapti. Bugungi farovon hayotimiz, bozorlarimiz to'kisligi, oziq-ovqat mahsulotlari seroblighi buning yorqin tasdiqidir.

**Shavkat HAMROYEV,
O'zbekiston Respublikasi
suv xo'jaligi vaziri.**

JST:

MILLIY QONUNCHILIK VA MUALLIFLIK HUQUQI
SOHASIDAGI XALQARO TALABLAR

Jahon cavdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish mamlakatdan intellektual mulkni, jumladan, mualliflik huquqi himoyasi bo'yicha qat'iy qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Bu savdo qoidalarini uyg'unlashtirish hamda JSTning barcha a'zolariga teng sharoit yaratish uchun zarur hisoblanadi. Tashkilotga a'zo bo'lishni istagan davlatlar o'zining milliy qonunchiligini mualliflik huquqi sohasidagi xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, shuningdek, ushbu huquqlarni himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlashi kerak bo'ladi.

Mushohada

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan milliy qonunchilikni JST bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha tizimli faoliyat olib borilmoqda. Xususan, o'tgan davrda intellektual mulk huquqini himoya qilish tizimini JSTning TRIPS bitimi talablariga muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, bu bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilindi.

Qayd etish joiz, 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga ko'ra San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi tashkil etildi.

Bugungi kunda palata dunyoning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish bilan shug'ullanib kelayotgan 30 ga yaqin tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlik shartnomalari tuzgan. Shuningdek, ushbu tashkilotlar faoliyat yuritadigan davlatlarda ham o'z mualliflari (huquq egalari) uchun mualliflik haqi yig'ish imkoniga ega bo'ldi.

Bu yil palata sohani rivojlantirish yo'lida xalqaro miqyosda muhim qadam tashladi. Ya'ni u Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) bilan hamkorlikka kirishib, ushbu tashkilotning assambleyalari va boshqa barcha tadbirlarida rasmiy kuzatuvchi maqomiga ega bo'ldi. Bu

haqdagi qaror BIMTning 2025-yil iyul oyida Jenevada bo'lib o'tgan yig'ilishida qabul qilindi.

Ma'lumki, BIMT – Birlashgan Millatlar Tashkilotining 193 ta a'zo davlatini o'z ichiga olgan hukumatlararo xalqaro ixtisoslashtirilgan tashkilot bo'lib, butun dunyo bo'ylab intellektual mulk masalalari bilan shug'ullanadi. U intellektual mulk sohasida xalqaro qoidalar va standartlarni ishlab chiqadi, patentlar va tovar belgilari bilan muhofazalangan intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi va a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantiradi.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan palataning BIMTd rasmiy kuzatuvchi maqomiga erishishi katta ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston ijodiy sohasining xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirishda strategik imkoniyatlarni taqdim etadi. Shunga ko'ra palata BIMTning asosiy yig'ilishlarida qatnashish, global muhokamalarda o'z pozitsiyasini bildirish va ilg'or tajribalarni mamlakatimizga olib kirish huquqiga ega bo'ldi.

Bugungi kunda palataning oldida muhim vazifalar turibdi. Ya'ni muallif va ijodkorlarning mualliflik huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ularning asarlaridan noqonuniy foydalanilishning oldini olish, huquq egalari va asarlar yagona ro'yxatini shakllantirish,

shuningdek, mualliflik haqini yig'ish va to'lanishini ta'minlashda ishtirok etishdir.

Binobarin, jahonda mualliflik huquqi ijodkorlar huquqlarini himoya qilish va ijodkorlik sohasini rag'batlantirish orqali yalpi ichki mahsulotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, mamlakatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Masalan, BIMTning hisob-kitoblariga ko'ra 2022-yilda ijodiy xizmatlarning global eksporti 1,4 trln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich an'anaviy tovarlarga nisbatan tezroq o'sib bormoqda.

Mualliflik huquqi yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda, asosan, ijodiy sohalar va intellektual mulk orqali muhim vazifani bajaradi. Bunda san'at, adabiyot, musiqa, dasturiy ta'minot va boshqa ijodiy mahsulotlarni yaratishni rag'batlantiradi, keyinchalik esa bu mahsulotlar tijoratlashtiriladi va eksport qilinadi, daromad keltiradi va iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Bu jarayonni bir qancha yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

Ijodiy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish. Mualliflik huquqi ijodkorlarning huquqlarini himoya qiladi, bu ularga kitob, musiqa, film, dasturiy ta'minot yoki dizayn yechimlari singari o'z asarlarini sotishdan foyda olish imkonini beradi.

Ijodiy sohalarini rivojlantirish. Mualliflik huquqini himoya qilish iqtisodiyotning muhim tarmoqlari bo'lgan noshirlik, kino ishlab chiqarish, musiqa sanoati, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va boshqa ijodiy sohalariga sarmoya kiritish faoliyatini rag'batlantiradi.

Yangi ish o'rinlarini yaratish. Ijodiy sohalar ijodiy tarkibni ishlab chiqarish, tarqatish, sotish bilan bog'liq faoliyatda ish o'rinlarini yaratadi. Bu esa aholining bandligi va daromadlari darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbek olimlari ko'zning virusli kasalliklariga qarshi bioeruvchan dori pilyonkasini yaratdi.

MAQSAD — GLOBAL MEHNAT BOZORIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH

Bugungi kunda jahon miqyosida sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar oliy taʼlim tizimidan nafaqat zamonaviy bilim, balki global koʻnikmalarga ega, xalqaro maydonda raqobatlasha oladigan mutaxassislarni talab etmoqda. Bu borada Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti oldidagi asosiy vazifa – xorijiy tillarni mukammal oʻzlashtirgan, ilgʻor tafakkurli, xalqaro mehnat bozori talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashdir.

Taʼlim

OʻzDJTUda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat taʼlim mazmunini yangilash, balki talabalarni mustaqil fikrlaydigan, tashqi muhitga tez moslasha oladigan va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Shu yil 8-avgust kuni Prezidentimiz rahbarligida oʻtkazilgan yigʻilishda oliy taʼlim muassasalarining bitiruvchilarini ish bilan taʼminlash masalasiga alohida eʼtibor berildi. Unda oliy oʻquv yurtlarining mehnat bozoriga integratsiya darajasi, bitiruvchilarning kelgusidagi faoliyati va ularning raqobatbardoshligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Universitetimizda ham bitiruvchilarni manzilli ishga joylashtirish, ularni ilmiy va amaliy ishlarga jalb qilish, xorijiy kompaniyalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda stajirovkalar tashkil etish asosiy maqsadga aylangan.

Talab yuqori, masʼuliyat katta

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda oliy taʼlim qamrovi sezilarli darajada kengaydi. Ayniqsa, soʻnggi yetti yilda qabul kvotalari 4,5 barobar oshgan boʻlib, qamrov darajasi 42 foizga yetdi. Bu esa taʼlim olish imkoniyati kengaytirilganini anglatadi. Biroq, davlat rahbari taʼkidlaganidek, mutaxassis tayyorlash jarayoni real mehnat bozori ehtiyojlari bilan toʻliq moslashmas ekan, bu raqamlar samarasiz boʻlishi mumkin.

Shavkat Mirziyoyev 8-avgust kuni boʻlib oʻtgan yigʻilishda "BYD" kabi yirik sanoat korxonalarida kadr yetishmasligi tufayli chet ellik mutaxassislar jalb etilayotganini aytarkan, bu kabi muammolarning oldini olish uchun oldindan tayyorgarlik koʻrish zarurligini alohida taʼkidladi. Yaqin 3-4 yilda iqtisodiyotning turli sohalarida 500 mingga yaqin malakali kadrlar talab qilinadi. Demak, oliy taʼlim tizimi bozor ehtiyojlarini oldindan anglaydigan va unga moslashadigan tizimga aylanishi lozim.

Bu fikrlar, shubhasiz, universitetimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki biz tayyorlayotgan kadrlar nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro mehnat bozorida ham oʻz oʻrnini topishi zarur.

2023/2024 oʻquv yilida oliygohimizni jami 4667 nafar talaba tamomlagan boʻlib, bitiruvchilarning 66,4 foizi ishga joylashgan, oʻqishni davom ettirayotgan, farzand parvarishi bilan band yoki xorijdagi faoliyatni tanlagan. Qolgan bitiruvchilar hozirda ish topish jarayonida. Bu raqamlar bir uchun tahlil va xulosa qilishga asos yaratadi. Yaʼni talabani faqat diplom bilan emas, balki ishga tayyor holda, zamonaviy koʻnikmalar bilan qurollantirgan holda katta hayotga kuzatish – bugungi kun talabi.

2024/2025 oʻquv yilida esa universitetni jami 6244 nafar talaba – 5932 nafari bakalavriat, 312 nafari magistratura bosqichi boʻyicha muvaffaqiyatli tamomladi. Eʼtiborlisi shundaki, bitiruvchilarning 3061

nafari (58 foiz) xalqaro va milliy til bilish sertifikatlarining "B2" va "C1" darajalariga ega. Bu nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligi, balki xalqaro ish bozoriga chiqish salohiyatini ham namoyon qiladi. Shuningdek, 778 bitiruvchi magistraturada oʻqishni davom ettirish uchun hujjat topshirgan. 1788 nafari frilans, onlayn taʼlim, xususiyl xizmatlarda oʻz-oʻzini band qilgan, 622 nafari farzand parvarishi bilan shugʻullanmoqda, 544 nafari iqtisodiy sohalarda ishlamoqda.

Shubhasiz, Prezidentimiz aytgan muammo – mehnat bozori bilan taʼlim oʻrtasidagi uzilish har bir oliy taʼlim muassasasi rahbaridan amaliy yechimlar talab etadi. Universitetimizda bu yoʻnalishda qator muhim qadamlar tashlanmoqda. Jumladan, taʼlim dasturlari mehnat bozori talablariga moslashtirilmoqda. Xalqaro tajriba

huquq, tibbiyot, xorijiy tillar va pedagogika yoʻnalishidagi oliygohlar oʻz daromad manbalarini shakllantirish, taʼlim sifatini yaxshilash va yangi loyihalarni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishmoqda.

Universitetimizda ham moliyaviy mustaqillik berilishi taʼlimdagi yangi strategiya va maqsadli koʻrsatkichlar, ilmiy faoliyat va xorijiy hamkorlik singari yoʻnalishlarda yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Moliyaviy erkinlik universitetga talabalar soni va taʼlim sifatini koʻtarish, mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan tillar boʻyicha yangi taʼlim dasturlarini joriy etish, xalqaro grantlar, loyihalar va onlayn taʼlim shakllarini rivojlantirish, oʻqituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan mablagʻlarni samarali yoʻnaltirish imkonini berdi.

Ayni paytda universitetda chet

“Yana bir muhim tashabbus – abituriyentlarning taʼlim olish imkoniyatining yanada kengaytirilishidir. Unga koʻra abituriyentlar oliygohda oʻqish uchun oʻzlari tanlagan beshta yoʻnalishning birortasiga kirolmagan boʻlsa, lekin bali boshqa oliy oʻquv yurtidagi toʻlmagan yoʻnalishga toʻgʻri kelsa, ular shartnoma asosida oʻqishga qabul qilinishi mumkin boʻladi. Bu amaliyot – adolat, shaffoflik va inson kapitaliga eʼtiborning yana bir ifodasidir. Shuningdek, biliml va maqsadli yoshlarni qoʻllab-quvvatlashda muhim qadamdir.

va sertifikatlash oʻquv jarayoniga integratsiya qilinaypti. Xorijiy hamkor universitetlar, kompaniyalar bilan stajirovka va amaliyot dasturlari joriy etilayotir. Talabalar onlayn frilans va tarjimonlik kabi zamonaviy ish shakllariga tayyorlanmoqda. Bitiruvchilarning ishga joylashuvi muntazam monitoringi olib borilib, ularga yaqindan koʻmaklashilmoqda.

Aytish joizki, biz tayyorlayotgan mutaxassislar nafaqat til bilimi, balki muloqot madaniyati, raqamli savodxonlik, tarjimonlik, xalqaro hamkorlik va global fikrlash kabi muhim koʻnikmalarga ega boʻlishi shart. Bu esa ularni yurtimiz va chet elda ham talabgir kadrqa aylantiradi.

Strategik rivojlanishda hal qiluvchi omil

Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalari oldidagi eng muhim vazifalardan biri – faqat byudjet mablagʻlariga tayanmasdan, oʻz salohiyati, tashabbusi va imkoniyatlari orqali moliyaviy barqarorlikka erishishdir. Prezidentimiz taʼkidlaganidek, moliyaviy mustaqillik – universitetlarning aniq natijalarga yoʻnaltirilgan, samarali va javobgar taʼlim muassasasiga aylanishida hal qiluvchi omildir.

Ayni paytda yurtimizdagi 40 ta oliy taʼlim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berilgan boʻlib, ularning katta qismi bu imkoniyatdan unumli foydalanmoqda. Xususan, iqtisodiyot,

tillarini oʻqitishga ixtisoslashtirilgan 27 ta bakalavriat yoʻnalishi va 19 ta magistratura mutaxassisligi mavjud boʻlib, talabalar soni va sifat koʻrsatkichlari yil sayin oshib bormoqda. Daromad manbalarini kengaytirish, frilans, onlayn tarjimonlik, xalqaro stajirovkalar va korporativ taʼlim kabi bozor talabiga mos xizmatlar tashkil etish orqali universitet oʻzining iqtisodiy modelida faollashmoqda.

Inson kapitaliga eʼtiborning yana bir ifodasi

Yigʻilishda taʼlim muassasalari faoliyatini "tarmoq – korxona – oliyogʻ" zanjiri asosida qayta qurish zarurligi alohida taʼkidlandi. Bu tizim, ayniqsa, injeneriya va sanoat sohalari uchun juda muhim boʻlsa-da, til oʻrgatish, tarjima, xalqaro aloqalar va multimedia sohalarida ham bevosita ahamiyat kasb etadi.

OʻzDJTU bu yoʻnalishda qator ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, xalqaro tashkilotlar, xorijiy korxonalar, diplomatik vakolatxonalar va turistik kompaniyalar bilan hamkorlikda bitiruvchilarni amaliyot va ish bilan taʼminlash mexanizmlari yoʻlga qoʻyilgan.

Yana bir muhim yangilik – oliy taʼlim muassasalarini baholash va moliyalashtirishning yangi tizimi joriy etilayotgani. Endilikda Yangi Oʻzbekiston universiteti modeli asosida har bir oliyogʻ faoliyati belgilangan ballar orqali baholanadi. Yangi tizimda



bitiruvchilar bandligi – 40 ball, ilmiy tadqiqot va mahsulot sotish – 30 ball, xalqaro nashrlarda maqolalar va ilmiy salohiyat – 20 ball, grantlar va loyihalar – 10 ballgacha baholanadi va oliygohning moliyalashuvi shu natijalarga bogʻliq boʻladi. Bu yangilik taʼlim muassasalarini raqobatbardosh, natijaga yoʻnaltirilgan, mustaqil fikr va tashabbusga asoslangan holda faoliyat yuritishga undaydi. Shuningdek, ijtimoiy va amaliy yoʻnalishdagi oliygohlarni bir xil mezonlar bilan baholab boʻlmashligi ham inobatga olinib, tarmoq xususiyatlariga mos reyting tizimi ishlab chiqilayotgani tashniga sazovor.

Yangi tizimning yana bir muhim jihati shundaki, oliygohlar endi tashkiliy va akademik mustaqillik huquqiga ega boʻladi. Yaʼni boshqaruv xodimlarini tayinlash, professor-oʻqituvchilar tarkibini shakllantirish, moliyaviy qarorlarni qabul qilish va "superkontrakt" miqdorini tabaqalashgan holda belgilash oliy taʼlim muassasasi rahbarining oʻz ixtiyorida boʻladi.

Bu kabi vakolatlar faqat erkinlik emas, balki masʼuliyatni ham talab etadi. Endilikda rahbar nomzodlar oliyogʻ kengashi oldida oʻz yillik dasturini asoslab berishi shart. Bu esa rahbariyat faoliyatining ochiq va hisobdorlik tamoyillariga tayanishini taʼminlaydi.

Yana bir muhim tashabbus – abituriyentlarning taʼlim olish imkoniyatining yanada kengaytirilishidir. Unga koʻra abituriyentlar oliygohda oʻqish uchun oʻzlari tanlagan beshta yoʻnalishning birortasiga kirolmagan boʻlsa, lekin bali boshqa oliy oʻquv yurtidagi toʻlmagan yoʻnalishga toʻgʻri kelsa, ular shartnoma asosida oʻqishga qabul qilinishi mumkin boʻladi. Bu amaliyot – adolat, shaffoflik va inson kapitaliga eʼtiborning yana bir ifodasidir. Shuningdek, biliml va maqsadli yoshlarni qoʻllab-quvvatlashda muhim qadamdir.

Aniq chora-tadbirlar real natija beradi

Prezident taʼkidlagan muhim masalalardan yana biri – oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarni ishga joylashgan deb hisoblash amaliyotidan voz kechish. Bu bilan har bir oliygohdan real natija, yaʼni bitiruvchilarni aniq va rasmiy ish joyi bilan taʼminlash kutilmoqda. Ushbu mezon oliygohlar reytingida ham muhim oʻrin tutadi.

Prezident yoshlar bandligini taʼminlash masalasiga alohida eʼtibor qaratdi. Taʼkidlaganidek, bu yilgi 92 ming bitiruvchining kelgusi faoliyati uchun muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ulardan 20 ming nafari magistratura va ikkinchi mutaxassislikda oʻqishni davom ettiradi, yana 20 mingga Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi orqali staj talab qilmaydigan ishlarga joylashtiriladi.

Shuningdek, har bir viloyatda tashkil etiladigan "Biznes inkubator"lar tadbirkorlik, marketing, dizayn va axborot texnologiyalari sohaslarida 10 ming bitiruvchini ish bilan taʼminlash imkonini beradi. Qolaversa, kimyo, energetika, geologiya, metallurgiya va boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida ham yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Moliyalashtirishga ham katta eʼtibor qaratilgan: "Oʻzmiliybank" AJ va "Aloqabank" ATB 300 mln. dollar ajratib, 20 ming bitiruvchining biznesini boshlashiga koʻmaklashadi. 5 mlrd. soʻmgacha 18 foizli imtiyozli kredit nafaqat bu yilgi, balki oʻqishni tugatganiga uch yil boʻlmagan bitiruvchilar uchun ham beriladi.

Universitetimizda ham yoshlar bandligini taʼminlashga katta eʼtibor qaratilmoqda. Misol uchun, "Oʻzmiliybank" AJ hamkorligida amalga oshirilayotgan "Kelajakka qadam" dasturida 48 nafar bitiruvchi biznes gʻoyalari bilan ishtirok etdi. Ulardan 35 nafari oʻz loyihalarini taqdim qildi va shundan 20 nafar bitiruvchining loyihalari 5 mlrd. 138 mln. soʻmga moliyalashtirildi, natijada 41 ta yangi ish oʻrni yaratildi. Tashkil etilayotgan boʻsh ish oʻrinlari yarmarkasi va "Talaba Expo – 2025" tadbirlari yoshlarni ishga joylashtirishda katta yordam boʻlmoqda. Bu yarmarkalarda 500 dan ortiq ish oʻrinlari taklif etildi va 150 nafar bitiruvchi hamda ish beruvchi oʻrtasida mehnat shartnomalari imzolandi.

Prezident yigʻilishda uyushmagan yoshlarni turli foydali mashgʻulotlarga jalb qilish, ularning kasb va til oʻrganishi, sport va vatanparvarlik tadbirlarida ishtirok etishi muhimligini taʼkidladi. Universitetimiz bu yoʻnalishda ham aniq va tizimli qadamlar qoʻymoqda. Masalan, Sergeli va Uchtepa tumanlaridan 55 nafar uyushmagan yigit-qiz bilan individual yondashuv asosida ishlash boʻyicha "Yoʻl xaritasi" tayyorlandi.

Yoshlarning sportga qiziqishini oshirish maqsadida 19 turda sport toʻgʻraklari ochildi, 8 mingdan ortiq professor-oʻqituvchi va talabalar muntazam mashgʻulotlarda qatnashmoqda. Sport musobaqalari, madaniy tadbirlar, biznes va innovatsion loyihalarga jalb etilmoqda. Bu ishlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyatga samarali integratsiya qilish va kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Sirasini aytganda, universitet yoshlar bandligini taʼminlash, tadbirkorlik va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash, uyushmagan yigit-qizlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Moliyaviy mustaqillik va natijaga qarab moliyalashtirish tizimlari oliyogʻ faoliyati samaradorligini koʻtarishga xizmat qilmoqda. Bu esa yoshlarga zamonaviy bilim va malaka berish bilan birga, ishbilarmonlik, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash imkoniyatlarini ham taqdim etyapti.

Zero, xorijiy tillarni oʻrgangan mutaxassislar milliy va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh boʻlib, ularni tayyorlashdagi samarali strategiyalar mamlakatimiz rivojiga ham katta hissa qoʻshadi.

Ilhomjon TOʻXTASINOV,
Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori,
professor.

AGRAR SOHA

YANGILIKLARI

Shirin kartoshka – batatning yangi, “chuchuk” navi yaratildi

Oʻzbek olimlari Janubiy Koreyaning Seul universiteti mutaxassislari bilan hamkorlikda shirin kartoshka – batatning yangi, “chuchuk” naviga asos soldilar.



Bu tashabbus Urugʻchilikni rivojlantirish markazi tomonidan ilgari surilib, navni yaratish jarayoniga amaliy koʻmak koʻrsatilib kelindi. Taʼkid shuki, batatning tabiiy shirinlik beruvchi genlari oʻchirilib, undan serhosil, toʻyimli va mazasi neytral mahsulot olishga erishildi.

Ayni paytda ushbu noyob nav Oʻzbekiston iqlim sharoitiga moslashtirilmoqda. Shu bilan birga, yangi kartoshka turi ekologik va agrotexnik sinovlardan oʻtkazilmoqda. Maqsad – uni mamlakatimizda ommaviy yetishtirishga tayyorlash hamda mahalliy fermer va agrotexniklarga innovatsion yechimlar taklif etishdan iborat.

Yangi nav Urugʻchilikni rivojlantirish markazining Toshkent viloyatidagi elita urugʻchilik xoʻjaligiga ekilib, dastlabki tajriba-sinov ishlari boshlab yuborildi. Bu ilmfan va innovatsiyaning qishloq xoʻjaligidagi muhim yutugʻi sifatida eʼtirof etilmoqda.

Oʻzbekiston anjir yetishtirish boʻyicha yetakchi oʻrinlarda

AQSHning “World Population Review” nashri tomonidan eʼlon qilingan anjir yetishtiruvchi davlatlar xaritasida Oʻzbekiston ham oʻzining munosib oʻrnini egalladi.



BMTning Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlarga koʻra anjir, asosan, Osiyo va Afrika mintaqalarida yetishtiriladi. Turkiya esa yirik ishlab chiqaruvchi davlatlar ichida yetakchi oʻrinni egallab kelmoqda.

Maʼlumot uchun, oʻtgan yili 27,2 ming tonna anjir yetishtirilgan boʻlib, ushbu koʻrsatkich Oʻzbekistonning mazkur yoʻnalishda salohiyatli va barqaror ishlab chiqaruvchi davlatlar qatorida ekanini koʻrsatadi.

Gʻalladan boʻshagan yerlar daromad manbaiga aylantirilmoqda

Dehqon yerga qanchalik mehr berib, undan oqilona foydalansa kutilgan natijani oladi. Bunda yerga takroriy ekinlar ekish va parvarishlashga eʼtibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.



Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xoʻjaligi ekinlari navlarini sinash markaziga qarashli Uychi nav sinash stansiyasida joriy yil gʻalladan boʻshagan 19,5 gektar maydonning 10 gektariga makkajoʻxori, 6 gektariga mosh va 3,5 gektariga moyli ekinlar ekilib, parvarish qilinmoqda.

Ushbu maydonlardagi ekinlar (turidan kelib chiqib) gektariga 200 kg. fosforli, 300 kg. azotli va 100 kg. kaliyli mineral oʻgʻitlar bilan oziqlantirilib, bosqichma-bosqich sugʻorildi. Kasallik va zararkunandalar bilan zararlantirishning oldini olish maqsadida esa bargdan oziqlantirish va kimyoviy preparatlar bilan profilaktik ishlovlar amalga oshirilmoqda.

“Xalq soʻzi”.

MAHSULOTLAR KOʻPAYTIRILIB, NARX BARQARORLIGI TAʼMINLANADI

Gazetamizning shu yil 11-iyul sonidagi “Goʻsht arzon boʻladi, ammo...” maqolasida koʻtarilgan masalalarga Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi tomonidan rasmiy munosabat bildirildi. Vazir oʻrinbosari J. Abdizuhurov imzosi bilan kelgan javob xatida aytilishicha, mazkur maqola vazirlik mutaxassislari tomonidan atroflicha oʻrganib chiqilib, respublikada chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish, goʻsht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini koʻpaytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash hamda narx barqarorligini taʼminlash maqsadida takliflar ishlab chiqilgan.

“Xalq soʻzi”da chop etilgach...

Javob xatida, jumladan, shunday deyiladi: “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga moʻljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida ustuvor yoʻnalishlar kesimida erishiladigan asosiy koʻrsatkichlar va indikatorlar”ning 1.3-bandida umumiy ekin maydonlari tarkibida ozuqa ekinlari maydonlari ulushini 2030-yilda 15 foizga yetkazish topshirigʻi berilgan. Soʻnggi yillarda qishloq xoʻjaligi sohasida ekinlarni diversifikatsiyalash, jumladan, fermer xoʻjaliklarining paxta va gʻalla yetishtirishga

moʻljallangan ekin maydonlari qisqartirilib, ular oʻrniga oziq-ovqat va ozuqabop ekinlar yetishtirish yoʻlga qoʻyilmoqda. Joriy yilda 806 ming gektarga (448 ming gektarga asosiy, 244 ming gektarga takroriy va 114 ming gektar lalmi – 2024-yildagidan 42 ming gektar koʻp) chorva ozuqa ekinlari ekilib, mazkur maydonlardan 19,4 mln. tonna (2024-yildagidan 2,2 mln. tonna koʻp) ozuqa va yem-xashak yetishtirilishi kutilmoqda. Shuningdek, asosiy maydonlarga jami 447,6 ming gektar ozuqa ekinlari (154,9 ming gektarga makkajoʻxori, 123,1 ming gektarga yangi beda, 22,7 ming gektarga oq joʻxori, 6,2 ming gektarga xashaki lavlagi, 140,7 ming gektarga ozuqa uchun kuzgi gʻalla) ekilgan. Ozuqa ekinlari maydoni 2020-yildagiga nisbatan jami 249,3 ming gektarga, shundan asosiy maydon 90,2 ming gektarga, lalmi maydonlar 113,6 ming

gektarga (lalmi yerlarga 2022-yildan beda va maxsar ekish boshlangan), takroriy maydon 45,4 ming gektarga koʻpayib, ozuqa yetishtirish hajmi 3,7 mln. tonnaga oshgan.

Ayni paytda chorvachilik xoʻjaliklarida 543 ta gidroponika usulida yiliga 20 ming tonna koʻk massa yetishtirish yoʻlga qoʻyilgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda vazirlik tomonidan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlari Kengashi va viloyatlar hokimlarining 2026-yil hosili uchun qishloq xoʻjaligi ekinlarini oqilona joylashtirish boʻyicha takliflari olinib, ozuqabop ekinlar maydonlarini yanada kengaytirish boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublikada chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish, goʻsht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini koʻpaytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash hamda narx barqarorligini taʼminlash maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: aholi xonadonlari hamda chorvachilik xoʻjaliklarini barcha turdagi chorva ozuqalari bilan taʼminlash boʻyicha har bir hududda bittadan, jami 13 ta “Ozuqa servis” markazini tashkil etish va ularga 200 gektardan sugʻoriladigan yer maydonlari ajratish; ozuqabop ekinlarning yangi nav va duragaylarini yaratish, boshlangʻich urugʻchilik ishlarni olib borish va yetishtirishni tashkil etish boʻyicha Ozuqabop ekinlarni yetishtirish va urugʻchiligini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot



institutini tashkil etish; paxta-gʻallachilik va boshqa yoʻnalishdagi fermer xoʻjaliklari va qishloq xoʻjaligi korxonalarida Fransiya tajribasi asosida kamida 30 boshli kichik chorvachilik xoʻjaliklarini yoʻlga qoʻyish sharti bilan oʻzlariga tegishli qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarning dala chekkalarida ichki xoʻjalik yer tuzish loyihasiga muvofiq, 20 sotixdan koʻp boʻlmagan oʻlchamda molxona va ozuqalarni saqlash obyektlarini qurishga ruxsat berish. Mazkur takliflar Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan “Chorvachilik tarmogʻini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash va sohada mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident qarori loyihasida (ID – 4317, 23.07.2025-yil, 01/25-2-04/1930-on) oʻz aksini topgan.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida aholining chorvachilik mahsulotlariga boʻlgan talabini yaxshilash hamda ichki bozorda narxlar barqarorligini ham taʼminlash imkoni yaratiladi”.

“Xalq soʻzi”.

BAXTIM "OLTIN VODIY" DA EKAN...

Kim to'kis yashashni istamaydi, deysiz. Ammo to'kis yashayman deb, o'zini o'tga-cho'qqa uraverish ham yaramaydi. Qo'rg'ontepalik Anya Bo'ronova ham katta pul ilinjida yaqinlarining gapiga quloq solmay Rossiyaga yo'l oldi. Ayol boshi bilan begona yurtda tishini-tishiga qo'yib ishladi. Biroz daromadga ham ega bo'ldi. Lekin o'zi orzu qilgan mablag'ni topa olmadi. Uyni sog'indi, qishloqdoshlari ko'z o'ngidan o'tdi. Va birgina telefon qo'ng'irog'i sabab Anya hech ikkilanmay jonajon mahallasi Oltin vodiya qarab go'yo "uchdi". Uni mahalladagi hokim yordamchisi izlagan edi...

Oramizdagi odamlar

Qo'rg'ontepa tumanidagi Oltin vodi y mahallasi eng chekka hududlardan hisoblanadi. Bir paytlar bu yerda ishsizlik ko'p, daromadli ish joylari kam edi. Ammo so'nggi yillarda bu manzil butkul o'zgardi. Endilikda mahalla o'z nomiga monand oltin vodiya aylandi. Bu yerda ish qidirib yurganlar endi ish beruvchiga aylanaypti. Qishloqda yashaydigan xotin-qizlar ham o'z biznesini yo'lga qo'yib, boshqalarga namuna bo'lmoqda.

Biz hikoya qilayotgan Anya Bo'ronova ana shunday tadbirkor ayollardan biri.

— Ancha yillar xorijda mehnat qilishga to'g'ri keldi, — deydi u. — Kerak-nokerak orzu-havas deysizmi, xullas, buning barchasi uchun esa mablag' kerak edi. To'g'ri, Rossiyada ishlab tirikchilikka yarasha pul ishlab topdim. Lekin baxtni uzoqdan izlagan ekanman. Taqdirim yurtim bilan chambarchas bog'liq ekan. Vatanga qaytgach, mahalla fuqarolar yig'iniga uchradim. 33 million so'm miqdorida

kredit mablag'i olib, gulchilik bilan shug'ullanishga kirishdim.

Anyaxonning ishlari shu tariqa yurishib ketdi. Xaridorlar o'zlari izlab keladigan bo'lib qoldi. Uydan chiqmay turib ham daromad topish mumkinligini ko'rgan qo'shnilar birin-ketin unga ergashdi.

— Undagi shijoat mahalliy hokimlik e'tiborini tortdi, — deydi Oltin vodi y mahallasidagi hokim yordamchisi Dostonbek Dehqonov. — Natijada 1 gektar yer maydoni ajratildi. Ayni paytda bu yerda issiqxona barpo etish ishlari olib borilmoqda. Xonadonidagi 6 sotixdan iborat issiqxonasida esa ishlar avjida. Bu yerda 15 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlangan. Ular har oyda 3,5-4 million so'm daromad ishlab topmoqda. Anyaxonning bir oylik daromadi esa o'rta 25 million so'mni tashkil etyapti. Bunga osonlikcha erishgani yo'q, albatta. Dastlab ichki bozorni o'rgandi.

Xaridorlar ehtiyojiga mos gul ko'chatlarini parvarishladi. Ayniqsa, Janubiy Koreya, Niderlandiya va Xitoy davlatlaridan noyob ko'chatlarni olib kelgach, ishlari yanada yurishib ketdi. Hozirgi kunda xaridorlar maqbul ko'chatlarni uyiga kelib olib ketmoqda.

Hamyurtimiz Anya Bo'ronova faoliyati tumanda amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning bir ko'rinishi, xolos. Aslida, bu kabi ibratli sa'y-harakatlar tuman bo'ylab keng quloqch yoygan. Shuning uchun ham mavjud 5717 nafar ishsiz va ijtimoiy reestrda turuvchi fuqarolarning 4120 nafarining bandligini ta'minlashga erishildi. Yil boshida aniqlangan 3952 ta kam ta'minlangan oilalarning 1842 tasini kambag'allikdan chiqarishda ham ularga ko'rsatilgan amaliy yordam asqatdi. Shu tariqa kimdir hunarmand yoki tadbirkor sifatida ish boshlagan bo'lsa, qaysidir oila



tomorqasidan unumli foydalanish, chovrachilikni yo'lga qo'yish kabi yo'nalishlarda daromad sari qadam tashladi.

— Mahallamizda Anya Bo'ronovadan saboq olib, gulchilikka asos solganlar soni 200 dan oshib ketdi, — deya fikrini davom ettiradi "Oltin vodi y" MFY hokim yordamchisi Dostonbek Dehqonov. — Yil boshida qayd etilgan 42 nafar ishsiz mahalladoshning barchasi binoyidek gulchiga aylandi. Mahallada to'plangan boy tajribadan saboq olishib, mustaqil ravishda daromad topa boshlashdi. E'tiborli jihati shundaki, ular nafaqat ichki bozorda, balki qo'shni davlatlarda ham o'z xaridorlariga ega.

To'g'ri, mahalla drayveriga

aylangan gulchilik bilan shug'ullanish hammaning ham qo'ldan kelavermaydi. Shu bois 2700 nafar aholining chovrachilik, tomorqachilik ortidan daromad topishi uchun barcha imkoniyat ishga solindi.

Xullas, kechagina chekka va kam imkoniyatli deb qaralgan Oltin vodi y mahallasi bugungi kunda o'z mehnati va hamijahatligi tufayli bandlik va farovonlik sari qadam tashlayotgan tadbirkorlar maskaniga aylanmoqda. Zotan, bugun Oltin vodi y o'z mehnati bilan boyigan, ertangi kunga komil ishonch bilan yashayotgan odamlar mahallasidir.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").

Ibrat

Paxtachi tumanidagi Tadbirkor mahallasi ayollari shifobaxsh asal yetishtirib, elaro mashhur bo'lib bormoqda. E'tiborli jihati, ayollar asalarichilikni mahallaning drayveriga aylantirishgan.



Ayol asalarichilar mahallasi haqida eshitganmisiz?



Masalan, Zuhroxon ayani olaylik. Bu tinib-tinchimas ayolni hech kim 60 yoshni qarshilagan demaydi. Onaxonning aytishiga qaraganda, mahallada ayollar asalarichilik sir-sinoatini puxta egallashgan. Hozirda deyarli barcha xonadonlarda 5-6 qutidan asalari parvarishlanadi. 20 nafar qishloq ayoli hovlisida 15 qutidan to 30 qutigacha asalari oilasi bor.

— Asalarichilik mehnati og'ir, o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'lgani bilan daromadi ham shunga yarasha, — deydi Zuhra Muhammadiyeva. — Masalan, biz o'zimiz har yili asal yetishtirib, o'rta 15 — 20 million so'm qo'shimcha daromad olapmiz.

Aytmoqchimizki, albatta, nonning qadriga yetish, uning burdasini ham isrof qilmaslik xalqimiz qadriyatlarining ajralmas bir bo'lagiga aylangan. Bu qadriyatga putur yetkazmaslik barchamizning burchimiz ekanini unutmaylik!

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

Bugunning gapi

— Yaqinda Zarifa

Saidnosirovaning "Oybegim mening" asarini o'qidim, — deb qoldi g'ijduvonlik 80 yoshli otaxon Hakim Rajabov. — Unda yurakni "jiz" ettiruvchi lavhalar ko'p. Lekin kitobdagi bir holat tafsilotini aytmasam ko'nglim joyiga tushmaydi.



Bir umr maktabda yoshlarga saboq bergan bu kekka adabiyot muallimining suhbatlari hamisha maroqli. Shu bois jon qulog'imizni tutdik.

— Bilasiz, Zarifa opa buyuk yozuvchimiz Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning rafiqasi bo'ladi, — davom etdi Hakim ota. — Asarda yozilishicha, adib kunlarning birida ijod qilayotib, "Zarifa, qornim och, juda ochiqdim", deydi. Uy bekasi mushkul ahvolda tushadi. Chunki uyda yegani bir burda non ham yo'q edi. Shunda Zarifa opa hujradagi xaltalarni titkilab, bir hovuch yirik kepak topadi. Shakar qo'shib qovuradi-da, uni dasturxonga tortadi. Nomi nimaligi noma'lum bu taomdan Oybek bir chindim yeb, rafiqasiga "Sen ham ol" deydi. Ammo ochiqqaniga qaramay, Zarifa opa taomga qo'l cho'zmaydi. Uni ertalabki nonushtaga, bolalari uchun qoldirishadi. Qarang, non — ulug' ne'matligi, farovon hayot qadru qimmatiga haqida bundan ortiq sarmazmun, ta'sirli hikoya bo'lishi mumkinmi?!

Darhaqiqat, urush borayotgan, qahatchilik avjiga chiqqan davrda bu kichik voqea tagida juda katta ma'no bor. Axir o'sha mash'um ocharchilik yillarida ayrim odamlarning ilojisizlikdan kunjara yeb vafot etgani ham ayni haqiqat.

— Shukrki, tinch, farovon zamonda yashayapmiz, — deydi yana bir suhbatdoshimiz, romitanlik mehnat faxriysi Zuhra Qurbonova. — Bozorlarimiz to'kin, peshtaxtalardagi shirmoy nonu patirlarni aytmasizmi? Ammo bu aziz ne'matning qadriga ham yetish kerak.

Non qadri haqida to'xtalishimiz bejiz emas. Afsuski, yurtimiz to'y-ma'rakalarida oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan, nonni isrof qilish davom etyapti. Ushatilganu ammo qo'l ham urilmagan, oradan bir-ikki soat o'tib suvi qochgan non burdalari qopga solinib, chorva mollariga berilayotgan maydonchalaridagi manzara esa yanada achinarli. Bu yerdagi qotgan va hatto moq'orlagan bus-butun nonlarni ko'rib, "dod" deging keladi. Ocharchilik, qahatchilik yillarini boshdan kechirgan Oybegu Abdulla Qahhor kabilar bu holni ko'rishganida nima deysilgan bo'lardi, deya achchiq o'yg'a tolasani kishi.

O'ramizda "Ehtiyojdan ortib qolgan non nest-nobud bo'layotgani yo'q. Ular qoramollarga berilyapti", deya e'tiroz bildirayotganlar ham uchrashi mumkin. Ammo nahotki, ular non inson uchun

eng bebaho ne'mat ekanini anglashi shunchalik qiyin?! Axir u dasturxonimizdan joy olgunga qadar qanchadan-gancha kishi mehnat qiladiku. Ming bir mashaqqat bilan yetishtirilgan g'allaning unga, keyin esa nonga aylanishi uchun juda katta kuch, energiya, mablag' sarflangan, axir. Qolaversa, dunyoning qay bir chekkasida, deylik, G'azoda yuzlab odamlar, begunoh bolalarning bir burda nonga zorligi, ochlikdan nobud bo'layotgani achchiq saboq emasmi?!

— Ko'p narsa oiladagi muhitga, tarbiyaga bog'liq, — deydi Z. Qurbonova. — Agar har bir ota-ona farzandlari ongu shuuriga nonning uvog'i ham non ekanini singdirsa, bu borada o'zi bolalariga o'rnak ko'rsatsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. O'z navbatida, muallimlar, kutubxonachilar ularda Zarifa Saidnosirovaning asariga o'xshash non, tinchlik, to'kinchilik qadru qimmatini anglatuvchi kitoblarni o'qishga rag'bat uyg'otsa, biz yuqorida tilga olgan noxush holatlar barham topishiga hissa qo'shgan bo'lardi, albatta.

Aytmoqchimizki, nonning qadriga yetish, uning burdasini ham isrof qilmaslik xalqimiz qadriyatlarining ajralmas bir bo'lagiga aylangan. Bu qadriyatga putur yetkazmaslik barchamizning burchimiz ekanini unutmaylik!

ham ari boqishga o'rgatmoqda.

— Bu kasbni qishloqda asalarichilikni keng yoygan Muhammad bobomdan o'rganganman, — deydi Shahzoda Muhammadiyeva. — Asalni, asosan, o'zimiz va yaqinlarimiz uchun yetishtiramiz, ehtiyojmandlarga beramiz. Undan ortasiga sotamiz. Mahallamiz ayollari asalarichilikning hadisini olgan, desam, xato bo'lmaydi. Bu kasbning sir-asorini boshqa mahallalar xotin-qizlariga ham o'rgatishmoqda.

Eng faol asalarichilardan bo'lgan Saodat opa Abdullayeva asalning inson organizmi uchun foydali jihatlari haqida to'xtaldi. Ahamiyatli, pandemiya davrida qishloqda biron kishi koronavirus bilan kasallanmagani, hozirda ham mahallada yotib qolgan og'ir bemorlar yo'qligi, barcha kekka yoshdagilar bardam, baquvvatligining sababi asal bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

— Bejiz asalni ming dardga davo deyishmaydi, — deydi Saodat Abdullayeva. — U immunitetni ko'taradi, organizmni tozalaydi. Aytam ishonmaysiz, uzoq-yaqindan odamlar atayin kelib asalarimizga o'zlarini chaqitirib ketishadi. Asalarining zahri ham shifo-da.

Paxtachi tumanidagi Tadbirkor mahallasi ayollari uy-ro'zg'or, tomorqa ishlaridan ortib asalarichilik bilan ham shug'ullanishning uddasidan chiqayotgani ibratga molik, albatta. Oilalar to'kinligi va farovonligiga o'z hissasini qo'shayotgan bu tadbirkor ayollar tajribasi mahallalar o'rtasida keng yoyishga arzuqlikdir.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi").



xabarlari

Bokschilarimiz jahon chempionatida qatnashadi

4 — 14-sentyabr kunlari Angliyaning Liverpool shahrida boks bo'yicha navbatdagi jahon chempionati bo'lib o'tadi. Kuni kecha O'zbekiston erkaklar terma jamoasi dunyo birinchiligiga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun "tumanli Albion"ga jo'nab ketdi.



Rejaga binoan bokschilarimiz musobaqa oldidan Sheffild shahrida so'nggi yig'inni o'tkazadi. Bu mahalliy ob-havoga moslashishni ham ko'zda tutgan bo'lib, mazkur yig'inga 20 nafar sportchi jalb etilgan. Mashg'ulotlar yakunida jahon chempionatida qatnashuvchi yakuniy tarkib aniqlab olinadi.

Shuningdek, 20-avgust kuni Elshod Rasulov boshchiligidagi ayollar terma jamoamiz ham Angliyaga yo'l olishi rejalashtirilgan.

Butunjahon sport o'yinlaridan — 11 ta medal

Xitoyning Chengdu shahrida o'tkazilgan Butunjahon sport o'yinlari mamlakatimiz sport delegatsiyasi uchun muvaffaqiyatli yakunlandi.

Noolimpiya sport turlari bo'yicha uyushtirilgan mazkur musobaqada yurtdoshlarimiz sambo, ushu va kikkboxing sport turlarida shohsupaga ko'tarildi. Xususan, atletlarimiz 3 tadan oltin va kumush, 5 ta bronza — jami 11 ta medal jamg'arib, 118 ta mamlakat orasida 26-natijani qayd etdi.

Sambo bo'yicha bahslarda G. O'roqova, Sh. Azatova va ayollar terma jamoasi oltin medallar bilan taqdirlandi. F. Boboqulova, M. Abdullayeva va D. Latisheva (ushu taolu) kumush, A. Sodiqov, H. Baratrov (kikkboxing "K1"), sambo bo'yicha O'zbekiston erkaklar terma jamoasi, M. Salohiddinova, Sh. Kushayev bronza medallarini qo'lga kiritdi.



"Nasaf" va "Andijon"ning raqiblari ma'lum

2025-2026-yilgi Osiyo Elit chempionlar ligasi va 2-chempionlar ligasi uchun qur'a tashlash marosimi Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida o'tkazildi. Mazkur ikki musobaqada mamlakatimiz sharafiga superliga chempioni "Nasaf" va mamlakat kubogi sohibi "Andijon" jamoalari himoya qiladi.

"Nasaf" klubi bir davralik safar va uy uchrashuvlarida "Traktor" (Eron), "Al-Shorta" (Iroq), "Al-Vahda", "Shabab Al-Ahli", "Sharja" (barchasi BAA), "Al-Hilol", "Al-Ahli", "Al-Ittihad" (barchasi Saudiya Arabistoni) kabi jamoalarga qarshi maydonga chiqadi.

Xalqaro maydonda ilk marta qatnashadigan "Andijon" 2-chempionlar ligasi bahslarini "B" guruhida o'tkazib, "Al-Ahli" (Qatar), "Arkadag" (Turkmaniston), "Al-Halidiya" (Bahrayn) jamoalari bilan keyingi bosqich uchun kurash olib boradi.

Har ikki musobaqaga 15-16-sentyabr kunlari start beriladi va g'oliblar 2026-yilning may oyida aniqlanadi.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

O'zbekiston va Germaniya tibbiyot muassasalari mutaxassislari bariatrik jarrohlik sohasida xalqaro standartlarni joriy etadi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummiliq qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi humda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 01.20 Topshirildi — 02.05

1 2 3 4 5 6